



## Farg'ona viloyatida 2018 yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (dastlabki ma'lumot)

### E'tibor bering:

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 61,0 % tashkil etdi.


2,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,8 birlikni tashkil qildi.

Farg'ona viloyatida hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2018 yilning yanvar-sentyabrida 2,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (31,0 %), savdo sohasida (23,2 %), qurilish tarmog'ida (11,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (7,0 %), yashash va ovqatlanishda (5,6 %), tashish va saqlashda (4,5 %) tashkil etilgan.




**Farg'ona viloyatida**  
**2018 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning**  
**asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>20027</b>	<b>22583</b>	<b>2556</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>2687</b>	<b>2930</b>	<b>243</b>
YaHM	%	63,2	61,0	-2,2
Sanoat	%	35,1	40,8	5,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,2	95,6	-1,6
Investitsiya	%	54,0	54,8	0,8
Qurilish	%	91,0	93,8	2,8
Savdo	%	90,8	89,8	-1,0
Xizmatlar	%	75,9	73,5	-2,4
Yuk tashish	%	89,3	95,7	6,4
Yuk aylanmasi	%	89,9	96,4	6,6
Yo'lovchi tashish	%	94,2	94,3	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,8	95,9	0,1
Eksport	%	43,0	50,3	7,3
Import	%	58,0	52,3	-7,7


2018 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Quvasoy shahrida 26,6 birlikda, Farg'ona shahrida 16,3 birlikda, Dang'ara tumanida 13,7 birlikda, Qo'qon shahrida 13,4 birlikda, Furqat tumanida 13,2 birlikda va Yozyovon tumanida 13,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10-13 birlik oralig'ida O'zbekiston, Toshloq, Uchko'prik, Rishton, So'x, Farg'ona, Quva tumanlari va Marg'ilon shahrida aniqlandi. Buvayda, Qo'shtepa, Oltiariq, Beshariq, Bag'dod tumanlarida 7-10 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

### 2018 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,8 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,9 birlikka ko'paydi.

### Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 35,1 %, qurilishda - 93,8 %, investitsiyada - 54,8 %, savdoda - 89,8 %, eksportda - 50,3 %, importda - 52,3 % va xizmatlar sohasidagi - 73,5 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

### 2018 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi



2018 yilning yanvar-setabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 61,0 foizini tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentabrda 63,2 foiz). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlikning  
YaHM dagi ulushining pasayishi dinamikasi  
yanvar-sentabr holatiga, %**



**Farg'ona viloyatida 2018 yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, (%)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>35,1</b>	<b>93,8</b>	<b>73,5</b>	<b>54,8</b>
<i>hududlar</i>				
Farg'ona sh	10,1	92,1	48,2	24,7
Qo'qon sh	10,3	71,0	90,2	52,4
Quvasoy sh	12,1	99,2	96,6	80,0
Marg'ilon sh	100,0	100,0	96,1	73,5
Oltiariq	100,0	100,0	95,3	38,7
Qo'shtepa	100,0	100,0	97,6	81,9
Bag'dod	42,2	95,2	96,1	50,3
Buvayda	100,0	100,0	96,4	83,2
Beshariq	52,2	94,3	95,1	64,4
Quva	74,2	100,0	94,2	74,6
Uchko'prik	90,0	95,9	97,0	58,7
Rishton	43,2	99,9	89,7	45,6
So'x	100,0	100,0	96,3	37,5
Toshloq	36,1	91,0	95,3	43,8
O'zbekiston	77,9	100,0	96,8	73,8
Farg'ona t	99,8	97,6	84,5	79,2
Dang'ara	100,0	94,7	96,2	74,4
Furqat	80,9	100,0	96,9	66,5
Yozyovon	100,0	93,4	95,8	56,3


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Farg'ona shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara va Yozyovon tumanlari (100,0 % dan) tashkil etadi.

Qurilishda - Farg'ona shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, Quva, So'x, O'zbekiston va Furqat tumanlarida 100 foizni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (97,6 %), Uchko'prik (97,0 %), Furqat (96,9 %), O'zbekiston (96,8 %), Buvayda (96,4 %), So'x (96,3 %) va Dang'ara (96,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Buvayda (83,2 %), Qo'shtepa (81,9 %), Farg'ona (79,2 %) tumanlari va Quvasoy (80,0 %) shaharlari tashkil etadi.

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2018 yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– **sanoat** mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3111,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 35,1 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 %ni tashkil qildi;

– 1536,2 mlrd. so`mlik **investitsiyalar** (umumiy investitsiyalar hajmining 54,8 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentabriga nisbatan o`shish sur`ati 121,6 %ni tashkil qildi;

– 1891,6 mlrd. so`mlik **qurilish ishlari** (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,8 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentabriga nisbatan o`shish sur`ati 111,6 %ni tashkil qildi;

– 4795,0 mlrd.so`mlik **xizmatlar** ko`rsatilib (Farg`ona viloyati jami xizmatlar hajmining 73,5 %), 2017 yilning yanvar–sentabriga nisbatan o`shish sur`ati 103,3 %ni tashkil qildi;


– **chakana tovar aylanmasi** umumiy hajmining 87,0 % yoki 81038,3 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 2,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 215,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 50,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) **eksport** qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 45,6 mln. AQSh dollariga yoki 27,7 %ga ko`p;

– avtomobil transporti **yuk aylanmasining** 6,6 % ga (Farg`ona viloyati jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

– **yo`lovchi aylanmasining** esa 3,1 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,9 % ) ko`payishi ta`minlandi.


### 2018 yil yanvar-sentabr hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Dang'ara tumanida (444,5 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (424,5 mlrd.so'm), Toshloq tumani (398,1 mlrd.so'm) va Farg'ona (342,6 mlrd.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Furqat (16,2 mlrd.so'm) va Uchko'prik (24,1 mlrd.so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




### 2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (15999,8 mlrd.so'm), Farg'ona (1544,4 mlrd.so'm), Qo'qon (747,3 mlrd.so'm), Marg'ilon (578,0 mlrd.so'm) shaharlari hamda Farg'ona (423,9 mlrd.so'm) va Qo'shtepa (423,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



### 2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Farg'ona (1394,1 mlrd.so'm), Qo'qon (774,4 mlrd.so'm), Marg'ilon (629,3 mlrd.so'm) shaharlari, hamda Oltiariq (174,9 mlrd.so'm) va Uchko'prik (169,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 79 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini - 25 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 31,6 %), qurilish - 9 (11,4 %), savdo - 18 (22,8 %), xizmatlar sohasi - 22 (27,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 5 (6,3 %).


## Farg'ona viloyatida 2018 yilning yanvar-sentyabrida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 77,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 22,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 72,2 % va 22,2 %, xizmatlar sohasida – 63,6 % va 27,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 27,0 % va 54,8 %, sanoatda – 80,0 % va 20,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 14,3 %, qurilishda – 0,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0 %, xizmatlarda – 9,1 % va savdoda – 5,6 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III-chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 92,0 % sanoat korxonalari, 77,8 % – savdo, 86,4 % – xizmatlar, 80,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 100,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul: J.Artikov

Tel.: (0371) 230-87-35